

**TO'LOVGA QOBILIYATSIZ KORXONALARDA MOLIYAVIY
SOG'LOMLASHTIRISH JARAYONLARI HISOBINING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI**

Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li

Namangan davlat texnika universiteti

tayanch doktoranti

ngofurjon@gmail.com

+99894-177-96-40

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida to'lovga qobiliyatsiz holatga tushib qolgan korxonalarda moliyaviy sog'lomlashtirish jarayonlari hisobing mohiyati, hisobga olishdagi xususiyatlari hamda bu jarayonlarni boshqarishdagi asosiy muammolar yoritilgan. Shuningdek, buxgalteriya hisobida sog'lomlashtirish choralarining aks ettirilish tartibi va ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'z: to'lovga qobiliyatsizlik, bankrotlik, moliyaviy sog'lomlashtirish, debitorlik qarz, kreditor qarz, aktiv, passiv.

Аннотация. В данной статье рассматриваются сущность бухгалтерского учета процессов финансового оздоровления неплатежеспособных предприятий в экономике Республики Узбекистан, особенности его учета, основные проблемы управления этими процессами, а также даются предложения по порядку отражения в бухгалтерском учете мероприятий по финансовому оздоровлению и его совершенствованию.

Ключевые слова: несостоятельность, банкротство, финансовая реструктуризация, дебиторская задолженность, кредиторская задолженность, активы, обязательства.



Annotation. This article highlights the essence of accounting in the processes of financial rehabilitation of enterprises that have fallen into insolvency in the economy of the Republic of Uzbekistan, the specific features of accounting in such cases, and the main problems in managing these processes. In addition, it provides the procedure for reflecting rehabilitation measures in accounting and offers recommendations for their improvement.

Keywords: insolvency, bankruptcy, financial restructuring, receivables, payables, assets, liabilities


Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday korxona iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlarga moslashishda muammolarga duch kelishi mumkin. Bu holat korxonaning to'lovga qobiliyatsiz holatga tushib qolishiga sabab bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda iqtisodiyotda barqarorlikka erishish choralari ko'rileyotgan bo'lsada, moliyaviy jihatdan sust faoliyat yuritayotgan, qarzdorligi ortib borayotgan korxonalar soni hali ham kam emas.

Hozirgi zamon iqtisodiyotida institutsional birlikni boshqarishda tizimli va kompleks yondashuvni shakllantirish zarurati tug'ilmoqda. Bunday yondashuv korxona faoliyatini samarali boshqarish uchun zarur bo'lgan uchta asosiy tarkibiy qismga tayanadi: axborot ta'minotiga asoslangan yondashuv, tizimli-maqсадli yondashuv hamda boshqaruv yondashuvi. 1-rasmida korxonani hisob-analitik boshqarishda qo'llaniladigan kompleks (tizimli) yondashuv modeli ilmiy-nazariy jihatdan aks ettirilgan.

Ushbu model korxonaning barcha resurslarini to'g'ri baholash, maqsadga yo'naltirilgan qarorlar qabul qilish va boshqaruv funksiyalarini muvofiqlashtirish orqali to'liq tahlil etishni ta'minlaydi. Bunda axborot tizimlari va boshqaruv vositalari bir-biri bilan uzviy bog'langan holda faoliyat yuritadi.

Korxonaning hisob-analitik boshqaruv tizimini takomillashtirishda kompleks (tizimli) yondashuv modeli muhim metodologik asos hisoblanadi. Bu

model korxona faoliyatini uzviy va bir butun tizim sifatida baholash, boshqaruv qarorlarini sifatli qabul qilish hamda iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini beradi.



1-rasm. Korxonani hisob-analitik boshqarishda kompleks (tizimli) yondashuv modeli.

Kompleks yondashuv quyidagi asosiy tarkibiy yo'nalishlar asosida shakllantiriladi:

1. Axborot yondashuvi – korxonaning hisob va tahlil jarayonlarida yuqori sifatli, aniq va o‘z vaqtidagi axborotni ta’minlashga qaratilgan. Bu turdag'i yondashuv korxonaning moliyaviy va operatsion ma'lumotlarini yig‘ish, qayta ishslash va tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

2. Tizimli-maqsadli yondashuv – korxonaning barcha bo‘lim va bo‘g‘inlarini yagona strategik maqsad sari yo‘naltirish, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash, hamkorlik va muvofiqlashuvni ta’minlashga xizmat qiladi.



3. Boshqaruv yondashuvi – tahlil natijalari asosida optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish, resurslar taqsimotini samarali yo'lga qo'yish va xo'jalik jarayonlariga nisbatan tezkor choralar ko'rishga yo'naltirilgan.

Bu modelni amaliyatga tatbiq etish orqali korxonalar o'z faoliyatini moliyaviy barqarorlik, samaradorlik va raqobatbardoshlik nuqtai nazaridan qayta baholaydi hamda to'lovga qobiliyatsizlik xavfini bartaraf etishga xizmat qiladi. Shu tariqa, hisob-analitik boshqaruv tizimi faqat hisobot yuritish vositasi emas, balki strategik boshqaruvning muhim qismiga aylanadi.

Buxgalter hisobot axborotidan foydalanuvchi subyektlar – ular ichki bo'ladimi yoki tashqi – ehtiyojlarini qondirish vazifasini bajaradi. Shu jihatdan buxgalteriya hisobi mustaqil maqsad emas, balki boshqaruv faoliyatini axborot bilan ta'minlovchi tizim sifatida qaraladi.

Buxgalteriya hisobi — bu muayyan xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'lchash, qayta ishlash va tegishli foydalanuvchilarga yetkazishni amalga oshiruvchi axborot tizimidir. Mazkur axborot foydalanuvchilarga cheklangan resurslardan samarali foydalanish, ya'ni turli alternativ qarorlar orasida asosli tanlov qilish imkonini beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yuritayotgan barcha korxonalar inqiroz holatining yuzaga kelishi ehtimoliga duch keladilar va inqiroz vaziyati korxonaning hayot siklining har qanday bosqichida yuzaga kelishi mumkin.

Moliyaviy sog'lomlashtirish bo'yicha operativ choralar korxonada ham tizimli, ham tizimsiz inqirozlarni yengib o'tish maqsadida qo'llaniladi.

Moliyaviy sog'lomlashtirish bo'yicha barcha chora-tadbirlar korxona faoliyatining turli tarkibiy qismlariga ta'siriga ko'ra quyidagicha tasniflanishi mumkin:

- korxonaning ishlab chiqarish faoliyati tarkibiy qismi;
- moliyaviy tarkibiy qismi (aktivlar va passivlar);
- tashkiliy tarkibiy qismi;



- kadrlar tarkibiy qismi (xodimlarning kasbiy va malakali tarkibi).

Ishlab chiqarish blokiga tegishli operativ choralar orasida quyidagilar alohida ajratib ko'rsatilishi mumkin:

1. asosiy ishlab chiqarish fondlari tarkibi va tuzilimini optimizatsiya qilish;
2. asosiy fondlarni yangilash usullarini ishlab chiqish.

Birinchi bosqichda korxonaning asosiy fondlarini inventarizatsiya qilish va batafsil tahlildan o'tkazish amalga oshiriladi. O'rganish natijalariga ko'ra quyidagilarning tarkibi va tuzilimi aniqlanishi kerak:

1. asosiy faoliyatni davom ettirish uchun zarur bo'lgan obyektlar;
2. yordamchi ishlab chiqarishlar;
3. ishlab chiqarishda ishtirok etmaydigan, konservatsiyada yoki ishlamaydigan holatdagi obyektlar;
4. ijtimoiy sohadagi obyektlar.

Amaliy tajriba ko'rsatadiki, moliyaviy inqirozning sabablaridan biri, hatto tez rivojlanayotgan korxonalarda ham, debitor va kreditor qarzlari darajasini nazorat qilish hamda uning samaradorligini ta'minlashdagi kamchiliklar bo'lishi mumkin.

Debitorlik qarzi kreditorlar va investorlar uchun yaxshi kafolat manbai hisoblanadi, chunki umumiy holda debitorlarning majburiyatları moddiy zaxiralar yoki to'liq ishlab chiqarilmagan mahsulotdagi xarajatlarga nisbatan ko'proq likvid hisoblanadi. Xaridorlar doirasi keng bo'lsa, umumiy risk kamayadi. Debitorlik qarzining likvidligi tahlilida debitor hisoblarining yosh tuzilmasini ham e'tiborga olish kerak.

Debitorlik qarzining paydo bo'lish muddatlari, uni tasdiqlovchi hujjatlarning mavjudligi hamda debitorlar haqidagi ma'lumotlar asosida qarzlar uch guruhga bo'linadi:

- qaytarilishi mumkin bo'lmagan (muddati o'tgan) qarzlar;



- qaytarilishi ehtimoli kam bo‘lgan qarzlar;
- qaytarilishi aniq bo‘lgan qarzlar.

Barcha chora-tadbirlarning maqsadi korxonaning aktivlari va passivlari tarkibi hamda tuzilmanni maqbullashtirish hamda pul mablag‘larini sarflashni qat’iy nazorat qilishdir.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqilgan hisob-kitob va kompleks (tizimli) yondashuv modeli to‘lovga qobiliyatsiz va moliyaviy nochor korxonalarini boshqarishda axborot, tizimli-maqsadli hamda boshqaruviy yondashuvlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, bu buxgalteriya boshqaruviga moliyaviy sog‘lomlashtirish jarayonlarini, ya’ni to‘lov qobiliyatini tiklash (bankrotlikni bartaraf etish) va mulkni tiklash (moliyaviy yetuklikka chiqish) chora-tadbirlarini amalga oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 12-apreldagi O‘RQ-763-sonli "To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida"gi Qonuni,
<https://lex.uz/docs/5957612>
2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi,
<https://lex.uz/acts/111189>
3. Raximov, M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili: O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Iqtisod Moliya. (2020). 517 b.
4. Abdusalomova N.B. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 944 b.
5. Abduvaxidov F.T., Qoziyev I.N., Dadabayev Sh.X. Buxgalteriya hisobi. Darslik. - T.: TDIU, 2019. - 403 b.
6. Sharipov B.R. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2024 – 337 b.